

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ АЙРИМ ТЕРМИНЛАР ТАРИХИДАН

Иброҳим Йўлдошев

Низомий номидаги ТДПУ “Ўзбек тили ва уни ўқитиш
методикаси”

кафедраси мудири, филология фанлари доктори, профессор

Til va jamiyat tushunchalari ma’no anglatish nuqtai nazaridan farqli ma’nolarni ifodalsa-da, bir-biri bilan uzviy bog‘langandir. Tilni xalq yaratadi va o‘z navbatida, u jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas ohangda takomil topib boradi. Xalqning madaniy va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti o‘z izlarini, birinchi galda, tilda qondiradi. Shu bois, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, birinchi navbatda, tilda aks aks etadi. Ana shu qonuniyat til va jamiyat tushunchalarining qanchalik uzviy bog‘liqligini ifoda etadi. Bu yaqin bog‘liqlikni yanada aniq ifodalash uchun quyidagi holatni anglash yetarli: agar biz Alisher Navoiy asarlarini o‘qisak, Navoiy yashagan davr bilan “gaplashamiz”. Navoiy qo’llagan so‘zlar o‘sha davrdan sado beradi. Unda *bank*, *avtobus*, *mashina*, *telefon*, *futbol*, *monitor* kabi so‘zlar mutlaqo uchramaydi, bo‘lishi ham mumkin emas. Chunki u davrda bunday tushunchalarining o‘zi bo‘lмаган. Navoiyda *kotib*, *qalamzan*, *xushnavis*, *kilk*, *xoma* kabi so‘zlarni o‘qishimiz mumkin va ular Navoiy yashagan davrga xosdir. Jamiyat taraqqiyot etib borishi jarayonida undagi o‘zgarishlar bilan hamohang tarzda yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi yangi so‘zlar paydo bo‘lib boraveradi. Demak, til jamiyat bilan doimo hamnafas yuradi.

Til xususida bildirilgan fikrlar turlicha, lekin haqiqat shuki, til benihoya muqaddas va mo‘tabardir. U insonni shakllantirgan, taraqqiyot sari yetaklagan, uning aql ne’matlarini ifoda etib, tafakkur gulshani darvozalarini ochgan tengsiz bir robitadir. Shunday bir buyuk ehtirom va e’zozga sazovor bo‘lgan tillarning kechmishi bir xil emas, albatta. Tarix sahnasida o‘zbek tili ne mashaqqatlar bilan omon qoldi. Axir, til – millatning ruhi, deyiladi, til o‘lsa, millat ham tamom bo‘ladi. Bunga misollar kammi? Butun Yevropa tillarining shakllanishida yetakchi til vazifasini bajargan buyuk lotin tili, Sharq tillarining bobosi deb ataganimiz sanskritcha tamoman tugab bitdi. Yoki yaqin hududlarimizda keng quloch yoyib taraqqiy etgan so‘g‘d tili, pahlaviy, parfiyon tillarining kechmishini eslaylik. Yoki Shimoliy Amerikadagi algonkin tillari mikrooilasiga kiruvchi massachusi hamda mogikan tillarining taqdiri ham yo‘qlik bilan yakunlandi. Yoki qadimgi Vaviloniyada keng tarqalgan *akkad* tili, eramizdan oldingi III asrdan eramizning IV asriga qadar G‘arbiy Osiyoda yashagan oromiy larning oromiy tili, shuningdek, qadimgi Finikiyadagi finikiy tili, qadimgi misr tili negizida paydo bo‘lgan koft tili kabi tillarning taqdiri ham yo‘qlik bilan yakun topib, tarix sahnasidan tushib qoldi. Shuning uchun ham tilimizning bugungi rivoji va jahon tillari orasidagi munosib o‘rni uchun beedad shukurlar qilishimiz kerak. To‘g‘ri, tilimiz ham o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘p sinoatlardan muvaffaqiyatli o‘ta oldi. U dunyo tillari

ummoniga kelib quyilgunga qadar qaerdadir shovullab shiddat bilan oqdi, qaerdadir tarix yo‘lidagi dambaga duch kelib, shiddatini sekinlatdi, yana dambani oshib o‘tib, o‘z o‘zanida til ummoni sari intildi. **Tilimizning bugunga qadar omon-eson kelishi va taraqqiy etishining asosiy boisi, birinchidan, xalqimizning o‘z ona tilini jonidan sevishi, asrab avaylashi, ardoqlashidadir.** Zero, bu haqda bundan ming yil avval buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg‘ariy aytgan edilar: “Xudo davlat quyoshini turklar (o‘zbeklar – I.Y.) burjida yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk (o‘zbek) deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to‘g‘ri yo‘lda yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har aqli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi qulq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular til tufayli o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar”¹. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan bundan ming yil avval aytilgan mazkur fikrlardan ko‘rinib turibdiki, xalqimiz azal-azaldan ona tilimizning muhibi, uni muqaddas bilib, ardoqlab kelgan. Xalqimizning ana shu xususiyatlari tufayli tilimiz tarixning barcha sinovlaridan omon-eson o‘tib, bugungi yorug‘ kunlarga yetib keldi. Millatimiz tabiatidagi ko‘p ming yillik til sevgisi, til e’zozini bugun ham to‘liq kuzatishimiz mumkin. 2022 yil 21 oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Muhtaram Prezidentimizning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigida tilimizga munosabat masalasida quyidagilarni ta’kidladi: “Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo‘lsa, uning o‘zligi va ma’naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrli va mo‘tabardir. Qadim turkiy tilimizning ilk bor ilmiy asosda tadqiq etgan buyuk alloma Mahmud Koshg‘ariyning: “**Erdam boshi tildur**”, ya’ni “Barcha ezguliklar tildan boshlanur”, degan so‘zlarida teran haqiqat mujassam. Darhaqiqat, odamzod qalbidagi jamiki oljanob fazilatlar ona tilining betakror mo‘jizasi, sehri va jozibasi bilan kamolga yetadi”.

Demakki, biz tarixan ona tilimiz shaydosimiz. Shunday bo‘lishi ham kerak. O‘zbek tilining yurti, Vatani – O‘zbekiston, davlat sifatida uni himoya qiladigan, taraqqiyotini, qonuniy asoslarini to‘liq ta’minlaydigan ham shu yurtdir. Endigi vazifamiz, asrlar davomida xalqimiz tomonidan ko‘z qorachig‘idek asrab kelingan, Koshg‘ariy, Navoiy kabi bobolarimizdek buyuk insonlarimiz bu til yashab ketishi, taraqqiy etishi uchun butun hayotlarini baxshida etgan tilimizning butun borlig‘i bilan kelajak avlodga yetkazishdir. Chunki til – millatning ruhi, til yashasa, millat ham yashaydi. Demak, bugun ham ona tilimiz oldidagi mas’uliyatimiz ortscha ortganki, kamaymagan.

Til hodisasi – ajoyib hodisa. Har qanday til uning so‘zlarini bilan go‘zal. Buni biz ba’zida yo sezamiz, yo sezmaymiz. Bu holatni buyuk shoirimiz Erkin Vohidov quyidagicha ta’riflaydi: “Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri

¹ Махмуд Кошгариј. Девону луготит турк. I жилд. – Тошкент: Mumtoz-so‘z, 2016. – Б. 21.

So‘z olamiga sayohatdir. Negaki, So‘z yaratilishdan mo‘jiza. Avval So‘z bo‘lgan, deyiladi muqaddas kitoblarda. ...So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan”².

Qo‘lyozma kitoblarni yaxlit qilib, biriktirib turuvchi va uzoq saqlanishini ta’minlovchi ustki (sirt) qismi *muqova* (موقع) yoki *jild* (جلد), bu ishni amalga oshiruvchi kasb egalari, ya’ni qo‘lyozmani muqovalovchi ustalar *muqovasoz* (راسه موقع), *sahhof* (صحف) yoki *mujallid* (مجلد), muqovalangan kitob esa *mujallad* (مجلد) terminlari orqali ifodalangan. O‘rta asrlarda muqovachilik hunarmandchilikning bir sohasi sifatida takomillashdi. XVIII-asrda O‘rta Osiyoda eng keng tarqalgan muqova turi *muqavva* deb atalgan. Muqavva tayyorlashda teri va qog‘ozdan teng miqdorda foydalanilgan. Bunday muqovalarni bezashda ularga yashil-to‘qqizil (jigarrang) bo‘yoqlar qorishmasidan tayyorlangan ajoyib rang berilgan. Bunday rangdagi muqovalar Buxoro va Qo‘qon xonliklarida (Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Toshkent shaharlarida) juda xaridorgir bo‘lgan. Ular maftunkorligi va go‘zalligi bilan kishini o‘ziga mahliyo etgan. A.Semyonovning ta’kidlashicha, bunday go‘zal muqovalar Sharq dunyosining boshqa joylarida uchramagan. Xivaliklar ko‘proq qora rangga bo‘yalgan charm qoplangan muqova shaydosi bo‘lganlar. O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bunday muqovalar uchramagan³. G.N.Chabrovning yozishicha esa, Xivada tayyorlangan barcha kitoblar albatta muqovalangan. O‘rta Osiyoda tayyorlangan kitob muqovalari qizil, sariq va yashil rangda bo‘lgan. Xivalik ustalar tayyorlagan kitob muqovalari yashil rangda bo‘lib, uning laxtagi qizil bo‘lgan. Xivada tayyorlangan muqovalarning o‘rta qismiga misdan tayyorlangan maxsus *muhr* vositasida bezakli tamg‘a bosilgan. Maxsus muhrlar Qo‘qon ustalari tomonidan tayyorlab berilgan⁴. XVIII-asrga qadar muqova uchun asosan qo‘y, echki, ot, eshak, kiyik terilari ishlatilgan. Urg‘ochi eshak terisidan tayyorlangan muqovaga nisbatan *saura* yoki *savra* terminlari qo‘llangan. Teri muqovalarga iskanja vositasida bo‘rttirib yoki botiq holdagi tasvirlar (muhrlar) tushirilgan. Terilar orasida kiyik terisidan ishlangan muqovaga iskanja orqali tasvir tushirish nihoyatda qulay sanalgan. Qo‘qon muqovasozligining o‘ziga xos usullaridan biri kitob muqovasining ustki va pastki qismlariga *laxtak* deb nom olgan tilchalar qo‘yib ketilishidadir. Mazkur tilcha kitobni tokchadan tortib olishda qulaylik yaratgan.

Muqovasozlik ishi XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida juda taraqqiy etdi. Chunki Qo‘qonlik hunarmandlar birgina muqovasozlik bilan shug‘ullanib qolmasdan, sahhoflik ishi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskunalarni ham o‘zлari ishlab chiqarishgan. Boshqa hududlarda bunday anjomlar tayyorlanmay qo‘ylganligi bois ularni topish birmuncha qiyinlashgan. Shu jihatdan qaralganda, Qo‘qonda muqovasozlikning hunarmandchilikning muhim sohasi sifatida rivoj topishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan.

O‘rta Osiyo muqovasozligida teridan tashqari yana ipak va qog‘oz aralashmasidan tayyorlangan matolardan (beqasam, baxmal, chit) xam keng foydalanilgan. Bularidan tashqari, muqovalarni tayyorlashda chinor yog‘ochidan tayyorlangan taxta muqovalar ham ishlatilgan. Bunday taxta muqovalar lok bilan

² Вохидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 5.

³ Исмоилова Э.М. Искусство оформления среднеазиатской рукописной книги XVIII-XIX вв. – Т.: Фан, 1982. – С.27.

⁴ Чабров Г.Н. У истоков узбекской полиграфии//Книга. Исследования и материалы. – Москва: 1961. –С.327.

jilolangan, lekin ular tez chirishga moyil bo'lgan. Buxoroda o'ta dabdabali kitob muqovalari uchun maxsus kumush quymasidan ham foydalanilgan. Muqovalarni yanada hashamatli qilish uchun ularga turli naqshlar ishlangan.

Sahhoflar tomonidan muqovaning qanday ashylardan tayyorlanishiga ko'ra ularga nisbatan *mag'ziy* (*karton*) *muqova*, *charm muqova*, *mato muqova* terminlari qo'llangan. Qog'oz qirqimlaridan tayyorlangan kartonga nisbatan *mag'ziy* (مغزى) termini ishlatilgan. Bunday kartonning ikki turi mavjud bo'lgan. Ulardan birining nomi *mag'ziyi rixta* (مغزى ریخته) bo'lib, «*quyma karton*» ma'nosini ifodalagan. *Mag'ziyi rixta* kitobat qilish jarayonida to'planib qolgan qog'oz va eski karton qiyqimlarini suvda ivitish orqali olingan qog'oz bo'tqasini muayyan o'lchamga va bichimga ega bo'lgan qolipa quyish, so'ngra esa, quritish orqali tayyorlangan. Ikkinchı karton turi *mag'ziyi soxta* (مغزى ساخته) deb atalgan va u qog'ozlarni bir-biriga yelimalash orqali yasalgan⁵.

Ta'kidlash joizki, o'tmishda *muqova* va *jild* terminlari ma'no anglatishda ma'lum bir farqlilikka ega bo'lgan. Xususan, *muqova* termini asosan *mag'ziy* (*karton* - qog'oz)dan tayyorlangan muqovalarga nisbatan ishlatilgan. Arabcha *muqova* so'zining asl ma'nosи: قوى (qavā) – «*kuchli, mustahkam bo'lmoq*»; قوى (qavva) – «*mustahkamloq*»; قوة (quvvatun), ko'pligi قوات (quvvat) – «*kuch, quvvat, energiya*»dan *muqova*⁶. «Turk tilining etimologik lug'ati»da «*mukavva*»ga quyidagicha izoh beriladi: «*kuvve (chidamlilik, kuchlilik, mustahkamlik, kuvvet)* dan *mukavva* ... Asl ma'nosи: *kavi* (chidamli, mustahkam, kuchli, ixcham) holatga keltirilgan, ixchamlashtirilgan, mustahkamlangan»⁷. Arab tilida «*teri (charm, ko'n)*» ma'nosini anglatuvchi *jild* termini, dastlab, «*charmdan ishlangan muqova*»ni ifodalagan bo'lsa, keyinchalik har ikki termin ham umuman muqovaga nisbatan qo'llangan. Navoiyda jild ikki ma'noda qo'llanadi:

1) *muqova, kitob muqovasi*: «*Navoiy nazmining avroqi zulfungdin parishondur, Aning jildig'a sunbul teridin sheroza istarmen*»⁸;

2) *teri, charm*: «*Qon quymay solsa raklarig 'a, Jildi yopishib so 'ngaklariga*»⁹.

Hozirgi o'zbek tilida *jild* so'zining ma'no anglatish doirasi kengaygan: «1. Juda noyob qo'lyozma kitoblarni yaxshi saqlash uchun uning muqovasiga o'lchab, ko'pincha teri-charmdan yoki matodan ishlangan g'ilof, qin; 2. Katta hajmi asarlarning ma'lum darajada mustaqil qismlari; 3. Ilgarigi o'quvchilar o'quv ashyolari solib yurish uchun matodan tikilgan xalta. Jild ikki yonidan latta tasmaga biriktirilgan va yelkadan o'tkazib bo'yinga osib yurilgan»¹⁰; 4. «Biror narsa ustidan kiydiriladigan, qoplab qo'yiladigan g'ilof. Yostiq jildi. 5. ayn. tom»¹¹.

Muqovalashda qopqoq jildi (*muqova*) bilan tikiladigan joyi alohida tayyorlanib olingan. O'rta asrlarda jild uchun eng yaxshi saxtiyon teri Hamadondan keltirilgan. Shunga ko'ra, bunday teriga nisbatan *charmi hamadoni* (چرم همدانى) termini

⁵ Карапг: Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. –Т.: Фан, 1971. –Б. 20; Семенов А.А. Гератская художественная рукопись эпохи Навои и ее творцы//Алишер Наваи.–М., Л.,1946. - С. 171-172

⁶ Карапг: Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. - Ленинград, 1946. – С. 856.

⁷ Ismet Zeki Eyuboglu. Türk Dilinin Etimoloji Sözlüğü. – Istanbul: Sosyal Yayınlar, 1995. – S.487.

⁸ Алишер Навой. Асарлар. Ун беш жилдли. 4-ж.Хазойинул-маоний. Фавоидул-кибар. –Т.,1965.– Б. 285.

⁹ Алишер Навой асарлари тилининг изоҳли лугати. Тўрг жилдли. 1-ж. – Т.: Фан, 1983. – Б.577

¹⁰ Ҳакимов М. Шарқ кўлёзмаларига доир терминлариниң киска изоҳли лугати//Адабий мерос,1983. – № 2. – Б.64

¹¹ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2-ж. – М.: Русский язык, 1981. – Б. 278-279

qo'llangan. Terining bu turi och jigarrang bo'lib, ustining yaltiroqligi bilan boshqa terilardan ajralib turgan.

Muqovasozlikda qo'llangan yana bir termin *haftjo 'sh* (هفت‌جوش) bo'lgan. Bu terminning har ikki komponenti ham forscha bo'lib (*haft* – «etti», *jo 'sh* – «qaynash, aralashish» demakdir), yetti xil ma'dan aralashmasidan yuzaga kelgan metall qotishmani ifodalagan. Muqovasozlikda bunday qotishmadan tayyorlangan lavha yordamida muqovalarga bo'rttirma rasm-shakllar tushirilgan. Navoiyda bu so'zni uchratishimiz mumkin: «*Gaj o'rniq'a mahlul etib haftjo 'sh, Qo'yub san'atgari saxtko 'sh. Solib haftjo 'sh ustiga taxta tosh, Bori jonibi tez bo'lg'on tarosh*»¹².

Forscha-tojikcha *iskanja* (اسکنجه) termini yangi muqovalarning qopqoqlari quritilayotganda tob tashlamasligini ta'minlovchi taxtakachga nisbatan ishlatilgan. Iskanja, asosan, yangi tayyorlangan muqovalar uchun qo'llangan. Bunda yangi muqova iskanjadagi taxtakachlar orasiga solinib, sekingina qisib qo'yilgan¹³. Muqovachilikka oid barcha ishlar *sahhoflik do'koni* deb nomlangan joyda amalga oshirilgan. Bundan tashqari, bu yerda kitob savdosi ham amalga oshirilgan: «*Mavlono Mir Qarshiy – Samarqandda bo'lur erdi va bozorda sahofflik do'koni bor erdi*»¹⁴. Ba'zi qo'lyozmalar muqovadan tashqari karton yoki charmdan tayyorlangan *sandiq // sanduq* (صندوق) deb ataluvchi g'ilof-qutilarda ham saqlangan¹⁵.

Sharq kitobatchiligidida ba'zan muqovalar yog'ochdan ham ishlangan. Kitob muqovasining har bir tomoni *toqa* (طاق): o'ng tomoni *o'ng toqa*, chap tomoni *chap toqa* deyilgan. Juzvlangan varaqlarning muqovaga birlashtirilgan joyi *sarband*, toqalarning ustidagi burchaklari *labaki*, muqovaning ichki tomoniga yopishtirilgan rangli qog'ozni *abri bahor*, ustidagi o'yma uchta (yuqorida, pastda, o'rtada) naqsh *tamg'a* nomlari bilan atalgan. «Tamg'ada ko'pincha sahoff yozushi bo'ladi. Unda sahoffning ismi, ba'zi hollarda sanasi ham yoziladi. Baytlar yozilgan tamg'alar ham uchrab turadi. O'rta asrlarda muqovaning ustki qismini badiiy jihatdan bezatishga katta e'tibor berilgan. Har turli naqshlar, syujetli rasmlar ham ishlangan. Sankt Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat Xalq kutubxonasida saqlanayotgan Navoiy kulliyotining muqovasiga oltin suvi bilan ishlangan rasm XVI asr Buxoro kitobat ishida badiiy muqova san'atining noyob namunasidir»¹⁶. Sharqshunos olim G.N.Chabrovning yozishicha, Sharqshunoslikda muqovalar *Sharq muqovalari* hamda *O'rta Osiyo muqovalariga* bo'lingan. Shuningdek, Eron va Turkiston muqovachiligida ham tafovutlar bo'lgan, ya'ni Turkiston muqovalarida hech qachon jonzod (qush, hayvon) tasvirlari berilmagan¹⁷.

«Uringan, yirtilgan, varaqlari juzvdan ko'chgan qo'lyozmalarni qayta tiklovchi, ta'mirlovchi usta» ma'nosida vassol, bu ish bilan shug'ullanish sohasi ma'nosida vassollik terminlari muomalada bo'lgan.

¹² Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 10-ж. Садди Искандарий. – Т., 1965. – Б. 341

¹³ Семенов А.А. Семёнов А.А. Гератская художественная рукопись эпохи Навои и ее творцы // Алишер Наваи. – М., - Л., 1946. – С. 172.

¹⁴ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 12-ж. Мажолиун-нафоис. – Т., 1966. – Б. 57.

¹⁵ Қаранг: Халидов А.Б. Книжная культура. – М., 1982. – С. 302.

¹⁶ Ҳакимов М. Шарқ кўлёзмаларига доир терминларнинг киска изоҳли лугати//Адабий мерос, 1985. – №2. – Б. 88.

¹⁷ Қаранг: Чабров Г.Н. К изучению Среднеазиатского книжного переплета//Народы Азии и Африки, 1964. – №2. – С.137, 139

Forscha *muhr* (مهر) termini kitob muqovasiga maxsus tamg‘a yoki hoshiyalardan iborat qabariq yoki botiq holdagi bezaklarni tushiradigan maxsus asbobga nisbatan qo‘llangan. Muqovasozlikda qo‘llangan muhr, asosan, Qo‘qon ustalari tomonidan misdan yumaloq qilib ishlangan. Muo‘rni muqovaga kosibchilikda charmga ishlov berishda ishlataliladigan *kuva* yordamida urib tushirilgan¹⁸. O‘tmishda muhrning turlari ko‘p bo‘lgan va ular turli materiallardan – mis, po‘lat, bronza, kumush, oltin kabilardan tayyorlangan. Uning shakllari ham turlicha bo‘lgan. Shuningdek, «qo‘lyozma kitoblarni saqlagan, mutolaa qilgan, istifoda etgan olimlar, shoirlar va boshqa kishilar ham o‘z shaxsiy muhrlarini kitoblarga bosib qo‘yanlar. Biz ana shu muhrlarga suyanib, ayrim qo‘lyozma kitoblar qaysi davlatning saroy kutubxonasida saqlangani va kimlarning nazaridan o‘tganligi haqida xabardor bo‘lamiz»¹⁹: «*Biri turk ayvонida osti muhr, Biri sort devонida bosti muhr*»²⁰; «*Shohbek manga bitilgan xatining orqasida beklar beklarga, balki ulug‘roq martabaliq beklar kichikrak chargalik beklarga muhrbosar yerda kog‘azning o‘rtasida muhr bosib yiboribtur*»²¹; «*Qulluq arzadosht ulkim, axtachidin inoyat qilib yiborgan og‘zi muhrluq bitikni o‘qub, javob olg‘uncha, axtachi oshug‘ub ketgan ermish*»²². So‘nggi parchadan anglashiladiki, maktublar ham biror joyga jo‘natilishidan oldin uni o‘zgalar ochmasligi uchun muhr bosilgan. Maxfiylikni ta’minlovchi bunday muhr *muhri ixfo* (مهر اخفا) termini bilan atalgan. Bundan tashqari, bodom shaklida yasalgan muhr *bodoma muhr* deb yuritilgan.

¹⁸ Қаранг: Якубовский Ю.О. Справочная книжка Самаркандской области на 1896 г., вып. ГУ. – Самарканд, 1896. – С. 63-64; Яна қаранг: Чабров Г.Н. Кўрсатилган асар, 139-бет.

¹⁹ Ҳакимов М. Шарқ қўлёзмаларига доир терминларнинг киска изоҳли лугати//Адабий мерос, 1985. – №2. – Б. 89.

²⁰ Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 13-ж. Вакфия. – Т., 1966. – Б.160.

²¹ Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 156

²² Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш жилдли. 13-ж. Муннабот. – Т., 1966. – Б.113.